



QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilning yanvar-mart oylarida Qashqadaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda - YaHM) hajmi joriy narxlarda 5 804,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,6 % ga o'sdi.

2020-yilning yanvar-mart oylari yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaHM 1 765,9 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 98,5 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMni shakllantirishda Qashqadaryo viloyatining qo'shgan hissasi 5,3 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHMni ishlab chiqarish


	<i>Mrld. so'm</i>		<i>2019-yil yanvar- martiga nisbatan % da</i>
	<i>2019-yil yanvar-mart</i>	<i>2020-yil yanvar-mart</i>	
I. Yalpi hududiy mahsulot, jami	5 218,8	5 804,6	100,6
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	4 585,2	5 410,0	100,8
Mahsulotlarga sof soliqlar	633,6	394,6	99,4
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	4 585,2	5 410,0	100,8
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1 047,5	1 231,7	102,9
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	1 600,7	1 788,4	94,7
sanoat	1 216,4	1 317,8	91,6
qurilish	384,3	470,6	104,7
Xizmatlar	1 937,0	2 389,9	104,6
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	397,5	466,9	103,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	317,8	370,1	107,1
boshqa xizmat tarmoqlari	1 221,7	1 552,9	104,4



QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining o'sish sur'atlari 102,9 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 22,8 %), qurilish – 104,7 % (8,7 %), xizmatlar - 104,6 % (44,1 %) ni tashkil etdi. Sanoat tarmog'ining taqqoslama narxlardagi hajmida kamayish yuz berdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 91,6 % (YaHM tarkibida ulushi 24,4 %) ni tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari (2019-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan % da)




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 93,2 %ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 6,8 % ini tashkil etdi.


Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligining YaHM tarkibidagi ulushi 2019-yilning yanvar-mart oylariga (22,8 %) nisbatan o`zgarmagan holda 22,8 % ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo`shgan holda) tarmog`ining ulushi 2019-yilning shu davriga (34,9 %) nisbatan 1,8 % punktga tushib, 33,1 % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 44,1 % ni tashkil etdi va 2019-yilning yanvar-mart oylari (42,3 %) bilan taqqoslaganda 1,8 % punktga ko`paydi.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo`yicha tarkibi
(jamiga nisbatan % da)

2019-yil yanvar-mart



2020-yil yanvar-mart




- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati
- Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi
- Sanoat (qurilishni qo`shgan holda)
- Xizmatlar


Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 8,6 % ni (2019-yilning yanvar-mart oylarida - 8,7 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 6,8 % ni (6,9 %), boshqa xizmat tarmoqlari 28,7 % ni (26,7 %) tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2019-yil
yanvar - mart



2020-yil
yanvar - mart



- Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Tashish va saqlash, axborot va aloqa
- Boshqa xizmat tarmoqlari